

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
AKADEMIK LITSEYI**

**TA’LIM JARAYONIDA INNOVATSION
G‘OYALAR VA TEXNOLOGIYALARNI JORIY
QILISH ZAMONAVIY TA’LIMNING BOSH
STRATEGIYASI**

Respublika ilmiy-amaliy konferensiya

MATERIALLARI

III-IV SHO‘BALAR



**2025,
26.04**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
AKADEMIK LITSEYI**

**TA’LIM JARAYONIDA INNOVATSION G‘OYALAR VA
TEKNOLOGIYALARNI JORIY QILISH — ZAMONAVIY
TA’LIMNING BOSH STRATEGIYASI**

**Respublika ilmiy-amaliy konferensiya
MATERIALLARI
2025-yil, 26-aprel**

**IMPLEMENTATION OF INNOVATIVE IDEAS AND
TECHNOLOGIES IN THE EDUCATIONAL PROCESS —
THE MAIN STRATEGY OF MODERN EDUCATION**

**PROCEEDINGS
of the Republican Scientific and Practical Conference
April 26, 2025**

**ВНЕДРЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ИДЕЙ И
ТЕХНОЛОГИЙ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЙ ПРОЦЕСС —
ОСНОВНАЯ СТРАТЕГИЯ СОВРЕМЕННОГО
ОБРАЗОВАНИЯ**

**МАТЕРИАЛЫ
Республиканской научно-практической конференции
26 апреля 2025 года**

BUXORO - 2025

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR DAVRIDA ANIQ VA TABIIY FANLARNI O‘QITISHDA SUN’IY INTELEKTNING SAMARALI BOSHQARUVI

Sayidova Nazokat Sayfullayevna – Buxoro davlat universiteti, Axborot tizimlari va raqamli texnologiyalar kafedrası dotsenti, fizika-matematika fanlari nomzodi.

Annotatsiya. Hozirgi davrda sun’iy intellekt raqamli texnologiyalar ijtimoiy, iqtisodiy va ilmiy taraqqiyotning muhim omiliga aylandi. Uning keng qo‘llanilishi bir qator axloqiy va boshqaruv muammolarini yuzaga keltirmoqda. Ushbu maqolada sun’iy intellekt bilan bog‘liq asosiy axloqiy muammolar, jumladan, algoritmik diskriminatsiya, shaxsiy ma’lumotlarning himoyasi va inson javobgarligi masalalari tahlil qilinadi [1]. Bundan tashqari, sun’iy intellekt boshqaruv tizimlarini samarali tashkil etish uchun shaffoflik, axloqiy kodekslar va xavfsizlik protokollarining ahamiyati yoritiladi [2]. Natijalari shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellekt algoritmlarini inson nazorati ostida rivojlantirish va axloqiy normalarni shakllantirish orqali uning xavfsiz va adolatli qo‘llanilishini ta’minlash mumkin [3]. Bugungi kunda xalqaro tajribalar va ilmiy yondashuvlar asosida sun’iy intellekt boshqaruvi bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan bo‘lib, ular kelajakdagi texnologik rivojlanishga moslashgan holda joriy etilishi lozim [4]. Ushbu maqola sun’iy intellekt rivojlanishining ijtimoiy ta’sirini kamaytirish va uni barqaror boshqarish masalalariga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, axloqiy me’yorlar, boshqaruv, raqamli texnologiyalar, shaffoflik, xavfsizlik

Kirish. Raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgan hozirgi davrda sun’iy intellekt iqtisodiy, ilmiy va ijtimoiy sohalarda muhim o‘rin egallay boshladi [5]. sun’iy intellekt texnologiyalari tibbiyot, ta’lim, transport va sanoat tarmoqlarida keng qo‘llanilmoqda. Masalan, sun’iy intellekt yordamida avtomatlashtirilgan diagnostika tizimlari tibbiy xizmat sifatini oshirishga xizmat qilmoqda. Biroq, bu texnologiyaning rivojlanishi bilan birga axloqiy va boshqaruv muammolari ham ortib bormoqda. sun’iy intellekt texnologiyalarining noto‘g‘ri ishlatilishi natijasida shaxsiy ma’lumotlarning xavfsizligi buzilishi, noto‘g‘ri qarorlar qabul qilinishi va ijtimoiy adolatsizlik yuzaga kelishi mumkin. Tadqiqotning maqsadi – bu sun’iy intellekt bilan bog‘liq axloqiy muammolarni aniqlash, ularni boshqarishning samarali usullarini ishlab chiqish va xalqaro tajribalarga asoslangan holda takliflar berishdir.

Metodika. Sun’iy intellekt texnologiyalari bilan bog‘liq quyidagi muammolar mavjud:

– Algoritmik diskriminatsiya, ya’ni bu sun’iy intellekt tizimlari noto‘g‘ri ma’lumotlarga asoslangan holda adolatsiz qarorlar qabul qilishi mumkin. Masalan, ishga qabul qilish tizimlarida noto‘g‘ri algoritmlar sababli ayrim ijtimoiy guruhlar diskriminatsiyaga uchrashi ehtimoli mavjud.

– Shaxsiy ma’lumotlarning himoyasi, ya’ni bu sun’iy intellekt tizimlari katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlaydi va noto’g’ri boshqaruv natijasida foydalanuvchilarning shaxsiy ma’lumotlari xavf ostida qolishi mumkin.

– Shaffoflik yetishmovchiligi, ya’ni bu sun’iy intellekt algoritmalarining ishlash tamoyillari aksariyat hollarda tushuntirilmagan bo’lib, bu foydalanuvchilarning ishonchiga putur yetkazadi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko’rsatadiki:

– sun’iy intellekt boshqaruv tizimlarini shaffoflashtirish sun’iy intellekt texnologiyalarining ishonchliligini oshiradi.

– sun’iy intellekt algoritmalarini inson nazorati ostida saqlash, xatoliklarni minimallashtirish va ijtimoiy adolatni ta’minlash imkonini beradi.

– Shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilishga doir xalqaro tajribalarni o’rganish sun’iy intellekt xavfsizligini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Xulosa. Kelajakda sun’iy intellekt boshqaruvini takomillashtirish uchun asosan, shaffoflikni oshirish va algoritmalarini audit qilish tizimlarini joriy etish, axloqiy kodekslar va qonuniy regulatsiyalarni ishlab chiqish, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish uchun ilg’or texnologiyalardan foydalanish, sun’iy intellekt qarorlarini inson tomonidan tasdiqlash mexanizmlarini yaratishni inobatga olish muhim deb hisoblaymiz.

Bundan tashqari, sun’iy intellektning rivojlanishi bilan birga uning axloqiy va boshqaruv masalalariga e’tibor qaratish zarur. Tadqiqot natijalari shuni ko’rsatadiki, sun’iy intellekt algoritmalarining shaffofligi va tushunarli bo’lishi ijtimoiy ishonchni oshirishga xizmat qiladi. Shu sababli, sun’iy intellekt tizimlarini ishlab chiqishda quyidagi chora-tadbirlarni ko’rish tavsiya etiladi. Demak, sun’iy intellekt texnologiyalarining jamiyatga ijobiy ta’siri oshirilib, salbiy oqibatlari minimallashtirilishi mumkin va bu raqamli jamiyat rivojlanishi uchun eng muhim tomonlardan hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Russell, S., & Norvig, P. (2020). Artificial Intelligence: A Modern Approach. Pearson.
2. Bostrom, N. (2014). Superintelligence: Paths, Dangers, Strategies. Oxford University Press.
3. Floridi, L., & Cowls, J. (2019). The Ethics of Artificial Intelligence. Mind & Machine.
4. Brynjolfsson, E., & McAfee, A. (2017). Machine, Platform, Crowd. W. W. Norton & Company.
5. Sayidova N. S. Numerical Modeling of Natural and Mixed Convection in a Confined Space //Lobachevskii Journal of Mathematics. – 2024. – T. 45. – №. 7. – C. 3391-3400.

N.U.Sharipova- Buxoro Muhandislik Texnologiya Instituti akademik litseyi, o‘qituvchi	
G.A.Erdonova- Buxoro Muhandislik Texnologiya Instituti akademik litseyi, o‘qituvchi.....	
ВЛИЯНИЕ ЧЁРНЫХ ДЫР НА СТРУКТУРУ ПРОСТРАНСТВА-ВРЕМЕНИ И ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ДЛЯ ИЗУЧЕНИЯ В ПРЕПОДАВАНИИ ЕСТЕСТВЕННЫХ НАУК	
З.И.Туксанова – Бухарский государственный университет, преподаватель	
Э.С.Назаров – к.т.н., доцент, Бухарский государственный университет	
Г.А.Еттиева – Бухарский государственный университет, студент кафедры физики.....	91
FIZIKA FANINI O‘RGANISHDA MASS MEDIANING O‘RNI	
Dars jarayonida mass media vositalardan foydalanish	
N.U.Sharipova.- Buxoro Muhandislik Texnologiya Instituti akademik litseyi, o‘qituvchi,	
G.A.Erdonova - Buxoro Muhandislik Texnologiya Instituti akademik litseyi, o‘qituvchi,	95
AKADEMIK LITSEYLARDA FIZIKA FANINI O‘QITISH HAMDA LABORATORIYA MASHG‘ULOTLARINI O‘TKAZISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARI	
D.K.Xo‘jayeva - Navoiy shahar Politexnika texnikumi, o‘qituvchi	
N.U.Sharipova - Buxoro Muhandislik Texnologiya Instituti akademik litseyi, o‘qituvchi.....	98
MATEMATIK MODELLASHTIRISH VA SUN‘IY INTELLEKT: YANGI YONDASHUVLAR VA ILOVALAR	
M.A.Qodirova - Toshkent Amaliy Fanlar Universiteti, o ‘qituvchi	
G.Qurbonova - Toshkent Amaliy Fanlar Universiteti, o‘qituvchi.....	101
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR DAVRIDA ANIQ VA TABIIY FANLARNI O‘QITISHDA SUN‘IY INTELLEKTNING SAMARALI BOSHQARUVI	
Sayidova Nazokat Sayfullayevna – Buxoro davlat universiteti, Axborot tizimlari va raqamli texnologiyalar kafedrasida dotsenti, fizika-matematika fanlari nomzodi.	104
ANIQ VA TABIIY FANLARNI O‘QITISHDA RAQAMLI INNOVATSIYALARNING TA’LIM JARAYONIGA TA’SIRI	
Sayidova Nazokat Sayfullayevna – Buxoro davlat universiteti, Axborot tizimlari va raqamli texnologiyalar kafedrasida dotsenti, fizika-matematika fanlari nomzodi.	
Yubo Yu. – BuxDU, magistr.	106
MATEMATIK MODELLASHTIRISH VA SUN‘IY INTELLEKT: YANGI YONDASHUVLAR VA ILOVALAR	
M.A.Qodirova- Toshkent Amaliy Fanlar Universiteti, o ‘qituvchi	
G.Qurbonova- Toshkent Amaliy Fanlar Universiteti, o‘qituvchi.....	107
KOMBINATORIK MASALALARNI YECHISH USULLARI HAQIDA	110

BUXORO DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI AKADEMIK LITSEYI



MANZIL:

• Buxoro shahar, Navoiyshoh ko‘chasi 12-B uy
Murojaat uchun telefonlar (**telegram**):

☎ +99890 5133001 Kurbanov J.

☎ +99891 4162932 Sherbekova G.

